



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020–yil yanvar–sentabr

2020–yilning yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **49,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **14,8** birlikni tashkil qildi.

2020–yilning yanvar–sentabrda **5,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,4** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 2265 ta, sanoatda 1151 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1188 ta, qurilishda 446 ta, yashash va ovqatlanishda 415 ta, tashish va saqlashda 194 ta tashkil etilgan.

2020–yil yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Savdo
36,3 %



Sanoat
18,4 %



Qurilish
7,2 %



Qishloq, ormon va
baliq xo'jaligi
19,0 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar
6,7 %



Tashish va saqlash
3,1 %

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019–y.	2020 –y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlikda	30967	38097	7130
Yangi tashkil etilgan kichik Korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	7124	6241	-883

Kichik tadbirkorlikning ulushlari:

YaHM	%	51,5	49,8	-1,7
Sanoat	%	22,3	20,3	-2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	97,4	94,7	-2,7
Investitsiya	%	26,6	32,5	5,9
Qurilish	%	82,3	79,6	-2,7
Savdo	%	39,1	37,4	-1,7
Xizmatlar	%	81,0	69,8	-11,2
Yuk tashish	%	26,6	24,4	-2,2
Yuk aylanmasi	%	59,4	57,6	-1,8
Yo'lovchi tashish	%	90,7	93,2	2,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,6	97,2	0,6
Eksport	%	28,0	25,4	-2,6
Import	%	14,6	44,5	29,9



2020 – yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020–yilning yanvar–sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Zangiota tumanida–716 ta, Qibray tumanida–477 ta, O'rta Chirchiq tumanida–466 ta, Toshkent tumanida–372 ta, Yangiyo'l tumanida–365 ta va Angren shahrida–305 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Ohangaron tumanida–142 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019–yil yanvar–sentabr	2020–yil yanvar–sentabr	(+;-)
Toshkent viloyati	7124	6241	-883
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	165	172	7
Olmaliq	256	214	-42
Angren	470	305	-165
Bekobod	252	167	-85
Ohangaron	132	142	10
Chirchiq	367	287	-80
Yangiyo'l	212	197	-15
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	183	256	73
Ohangaron	149	180	31
Bekobod	196	175	-21
Bo'stonliq	349	290	-59
Bo'ka	230	273	43
Quyichirchiq	214	265	51
Zangiota tumani	1 138	716	-422
Yuqori Chirchiq	303	293	-10
Qibray	607	477	-130
Parkent	275	241	-34
Piskent	126	168	42
O'rta Chirchiq	369	466	97
Chinoz	201	220	19
Yangiyo'l	429	365	-64
Toshkent	501	372	-129



2020–yil yanvar–sentabr holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020-yilning yanvar sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Zangiota tumani-11,5 %, Qibray tumani-7,6 %, O'rta Chirchiq tumani - 7,5 %, Toshkent tumani-6,0 %, Yangiyo'l tumani -5,8 %, Angren shahri -4,9 %, Yuqori Chirchiq tumani-4,7 %, Bo'stonliq tumani-4,6 % va Chirchiq shahri- 4,6 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar- sentabr	2020 -yil yanvar- sentabr	(+;-)
Jami	7124	6241	-883
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	692	1188	496
Sanoat	1549	1151	-398
Qurilish	725	446	-279
Savdo	2665	2265	-400
Tashish va saqlash	274	194	-80
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	577	415	-162
Axborot va aloqa	73	89	16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	82	91	9
Boshqa faoliyat turlari	487	402	-85

Ma'lumot uchun: 2020-yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 -yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi(+;-)
Zangiota tumani	1138	716	-422
Qibray tumani	607	477	-130
O'rta chirchiq tumani	369	466	97
Toshkent tumani	501	372	-129
Yangiyo'l tumani	429	365	-64
Angren shahar	470	305	-165
Yuqori Chirchiq tumani	369	293	-76
Bo'stonliq tumani	349	290	-59
Chirchiq shahri	367	287	-80
Bo'ka tumani	230	273	40


2020–yilning yanvar–sentabr yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida–1138 taga yetdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2020–yilning yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Zangiota tumanida 22,7 birlik, Ohangaron shahrida 22,7 birlik, Nurafshon shahrida 19,9 birlik. Yangiyo'l shahrida 19,0 birlik, Qibray tumanida 17,5 birlik, Toshkent tumanida 15,2 birlik, O'rta Chirchiq tumanida 15,1 birlikni tashkil etgan. Bekobod tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,2 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonava mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020–yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik korxonava mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020–yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020–yilning yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Zangiota tumanida 22,7 birlik, Ohangaron shahrida 22,7 birlik, Nurafshon shahrida 19,9 birlik, Yangiyo'l shahrida 19,0 birlik, Qibray tumanida 17,5 birlik, Toshkent tumanida 15,2 birlik, Yuqori Chirchiq tumanida esa 14,1 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Zangiota tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Bekobod tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da


2020-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 49,8 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - sentabrida 51,5 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





2020 – yilning yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da



2020–yilning yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent viloyati	20,3	79,6	69,8	32,5
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon sh.	18,8	95,5	81,3	24,6
Olmaliq sh.	1,2	63,1	101,2	2,7
Angren sh.	23,0	80,7	100,5	66,6
Bekobod sh.	4,2	68,9	102,4	59,7
Ohangaron sh.	57,5	82,8	107,6	35,9
Chirchiq sh.	17,8	81,5	102,6	22,1
Yangiyo'l sh.	47,4	65,6	103,9	60,9
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on tumani	26,8	94,7	101,1	20,1
Ohangaron tumani	68,7	76,6	95,5	82,3
Bekobod tumani	55,6	79,2	102,9	40,7

Bo'stonliq tumani	28,7	87,4	100,7	8,6
Bo'ka tumani	100,0	95,7	103,2	47,5
Quyi Chirchiq tumani	64,5	87,2	100,2	58,8
Zangiota tumani	28,3	68,7	106,7	15,8
Yuqori Chirchiq tumani	66,8	79,6	106,6	43,5
Qibray tumani	27,7	70,1	104,5	36,8
Parkent tumani	90,7	79,9	102,7	54,3
Piskent tumani	48,5	94,0	103,1	41,7
O'rta Chirchiq tumani	70,3	75,0	111,2	64,0
Chinoz tumani	72,7	84,1	119,0	49,4
Yangiyo'l tumani	53,2	83,9	96,2	23,7
Toshkent tumani	64,2	94,5	97,6	57,2

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Bo'ka t (100,0 %),
Parkent t (90,7 %),
Chinoz t (72,7 %), O'rta
Chirchiq t (70,3 %),
Ohangaron t (68,7 %) va
Yuqori Chirchiq
tumanlari (66,8 %)

Qurilishda-


Bo'ka t (95,7 %),
Nurafshon sh (95,5 %),
Oqqo'rg'on t (94,7 %),
Toshkent t (94,5 %),
Piskent t (94,0 %) va
Bo'stonliq
tumanlari (87,4 %)

Xizmatlarda-

Chinoz t (119,0 %),
O'rta Chirchiq t (111,2
%), Ohangaron sh
(107,6 %), Zangiota t
(106,7%), Yuqori
Chirchiq t (106,6 %) va
Qibray tumanlari
(104,5%)




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2020 yilning yanvar-sentabrida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020–yil yanvar–sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatining ko'p ulushini Bo'ka tumanida–100%, Parkent tumanida 99,9 %, Bekabod tumanida–99,8%, Quyi Chirchiq tumanida–99,5%, Ohangaron tumanida–99,4 %, O'rta Chirchiq tumanida – 98,8 %, Oqqo'rg'on tumanida–95,7 %ni, eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida – 0,6%ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020–yil yanvar–sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Parkent tumanida–100 %, Oqqo'rg'on tumanida–99,7 %, Bekabod tumanida–97,5 %, Chinoz tumanida–95,6 %, Bo'ka tumanida–90,4 %, O'rta Chirchiq tumanida–88,6 %, Yangiyo'l shahrida–86,8%. Eng past ko'rsatkich Bekobod shahrida–2,1 %ni tashkil etdi.




2020– yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Ohangaron shahri (1444,2 mlrd. so`m), Zangiota tumani (1187,2 mlrd. so`m), Qibray tumanida (824,4 mlrd. so`m), Yuqori Chirchiq tumani (820,8 mlrd. so`m) va Angren shahrida (731,2 mlrd. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Bekobod tumanida (112,8 mlrd. so`m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.






2020– yil yanvar–sentabr holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bo'ka tumani (100,0%), Parkent tumani (90,7%), Chinoz tumani (72,7%), O'rtachirchiq tumani (70,3%), Ohangaron tumani (68,7%), Yuqori Chirchiq tumani (66,8%), Quyi Chirchiq tumani (64,5%), Toshkent tumani (64,2%), Ohangaron shahar (57,5%), va Bekabod tumani (55,6%), tashkil etdi. Olmaliq shahrida (1,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020–yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o`sinh sur`ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani - 755,3mlrd. so`m (2019 yilning yanvar–sentabriga nisbatan o`sinh sur`ati 105,0%), Olmaliq shahri 485,5 mlrd. so`m (103,3%), Qibray tumanida 430 mlrd. so`m (99,6%) va Yangiyo'l shahrida 301 mlrd. so`m (104,6%) hissasiga to`g`ri keladi.



2020–yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o`sinh sur`ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota tumani - 367,10 mlrd. so`m (2019 yilning yanvar – sentabrga nisbatan o`sinh sur`ati 68,7%), Qibray tumani 297,0 mlrd. so`m (70,1%), Toshkent tumani 270,5 mlrd. so`m (94,5%), Yuqori Chirchiq tumani 241,8 mlrd. so`m (79.6%) hamda Yangiyo'l shahrida 65,6 mlrd. so`m (65,6%) qayd etildi.






2020–yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va o`sish sur`ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Zangiota tumani - 690,3 mlrd. so`m (2019 yilning yanvar – sentabrga nisbatan o`sish sur`ati (106,7%), Qibray tumani 582,7 mlrd. so`m (104,5%), Chirchiq shahar 561,2 mlrd. (102,6%), Angren shahar 477,3 mlrd so`m (100,5) hissasiga to`g`ri keladi.



2020– yilning yanvar–sentabrda tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o`shish sur`ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota tumani - 367,10 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar–sentabrga nisbatan o'sish sur'ati (68,7%), Qibray tumani 297,0 mlrd. so'm (70,1%), Toshkent tumani 270,5 mlrd. so'm (94,5%), Yuqori Chirchiq tumani 241,8 mlrd. so'm (79.6%) hamda Yangiyo'l shahrida 78,1 mlrd. so'm (65,6%) qayd etildi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020–yil III-chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1510** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020–yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,9 % (119ta.), sanoatda – 19,7 % (298 ta), qurilishda – 8,3% (125 ta), savdoda – 36,3% (548 ta), xizmatlar sohasida–27,8 % (420 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2020–yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020–yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli deb baholangan korxonalarining ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 17,4 punktga, xizmatlar sohasi 15,3 punktga, sanoat sohasida 27,3 punktga savdo sohasida 26,7 punktga va qurilish sohasida 12,9 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019–2020-yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020–yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq xo'jaligi 13,2, xizmatlar sohasi 10,2 punktga, savdo sohasi 7,1 punktga, sanoat korxonalarini 11,9 punktga, qurilish korxonalarini 8,0 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 3,1 punktga, qishloq xo'jaligida 2,0 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020– yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020–yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 195 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari–35 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 17,9%i), qurilish–13 ta (6,7%i), savdo–74 ta (37,9%i) va xizmatlar–37 ta (19,0%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi–36 ta (18,5%).

2020–yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,% da






2020–yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020–yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidan tashqari deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan qurilish va savdo faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,8 punktga, xizmatlar sohasida 1,7 iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



2019–2020–yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020-yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 3,2 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 11,6 punktga, savdoda 1,4 punktga, sanoatda 3,2 oshdi, qurilish korxonalarida esa 18,7 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilish sohasida 7,7 punktga, o'rmon va baliqxo'jaligi korxonalarida 13,9 punktga, ko'paydi.



2019–2020–yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

